



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ABDULLA SHER IJODIDA BADIY TASVIR IFODASI

Sayyora Xaqnazarova

FarDU, katta o'qituvchisi.

Abdulla Sher boshqa o'nlab zabardast shoirlar kabi yuksak poetik mahoratga ega shoirlardan hisoblanadi. “Abdulla Sherning badiiy mahorati haqida gap borar ekan, uning so'zni chuqur his qilib tanlashi, o'rnini topib, tejamkorlik bilan qo'llashini ham ta'kidlash lozim. Shu jumladan, shoirning qofiya borasidagi izlanishlari e'tiborga loyiqdir. U imkoni boricha ohori to'kilmagan so'z birikmalaridan qofiya tuzishga harakat qiladi”². Darhaqiqat, tahlillarda kuzatganimida shoir she'rlaridagi qofiya ritmik unsur sifatida misralar oxirini ta'kidlaydi hamda she'rlarning misralarga bo'linishini ta'minlaydi va tasviriy-ifodaviy vosita sifatida she'rdagi asosiy ma'noni anglatuvchi so'zlarni ajratib ko'rsatadi.

Doim haqni yozdim, men yozdim borni,

Qishdan yasamadim sun'iy bahorni,

Daraxt atamadim hech qachon dorni,

*Tuproqqa qormadim so'z degan orni*³.

Satrlardagi “borni”, “bahorni”, “dorni”, “orni” so'zlari o'zaro qofiyadoshdir, ular unli harf bilan tugagani sababli “ochiq qofiya”, deb ataladi. Shoir imkoni boricha ohori to'kilmagan so'z birikmalaridan qofiya tuzishga harakat qiladi. Jumladan, “daf aylab-avaylab”, “nur sinishi-xo'rsinishi”, “qum qitday-umidday”, “tarixga – na ruhga”, “yoz-qishni-yozmishni”. Bunday misollar shoirning barcha she'rlarida uchraydi. Shoir she'rlarida “ochiq” va “yopiq” qofiyalardan foydalanib, tovushlar ohangdorligini saqlab qolishga erishgan. Bu izlanishlar albatta, she'rning ta'sir kuchini va ohangdorligini oshiradi.

Abdulla Sherning deyarli barcha she'rlari o'zbek poeziyasida yetakchi -barmoq vaznida yozilgan. Har bir so'zning alohida turoq bo'lishi she'r ritmining yana ham aniq, danga, o'ynoqi bo'lishiga olib keladi. Har bir turoq tarkibida nechta bo'g'in borligi bilan xarakterlanadi. Bu she'rda turoqlar o'lchov jihatidan xilma-xildir va bu turoqlarning misralarda tartibli almashinib kelishlari ham turli-tumandir.

2 1 3 3 3

Vatan!/ Bu /tarixim/ jangim/ san'atim/- 11

2 4 1 2 2

Oppoq/ paxtamdagi/ bir /ukpar/ yurak/ -11

2 1 3 2 3

Vatan! Bu-do'stligim, shodlik,zahmatim,-11

3 3 3 2

²Зоҳидов В. Жаҳон бадиияти зарварақлари. Замонани куйлаётган шоир. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.– Б.425.

³Абдулла Шер. Танланган асарлар. Рубойлар. Шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б.574.



Yurakka quyoshni chorlovchi istak!-11

Bu misralarning har biri -o'n bir bo'g'inli, bo'g'in soni jihatidan teng, so'z soni jihatidan teng emas. Masalan:1-, 2-, 3-misralarda 5 tadan so'z, 4-misrada 4 ta so'z. Bundan bo'g'in urg'u sistemasining o'ziga xos va u barmoq sistemasi uchun mansub emas, deb xulosa chiqarsa bo'ladi. Misralar bo'g'in va turoq soni jihatidan teng emas, bo'g'in va turoqlar misralarda har xil berilgan. "Abdulla Sher kichik detallarda yirik gaplar va yirik hislarni kuylaydi. Bu uning o'zi kashf etgan ijodiy prinsipidir. Fikrimizni ifodalash uchun yana bir she'riga murojaat qilamiz. Bu she'r mashhur grek qo'shiqchisi Teodorakisga bag'ishlangan. Ammo unda Teodorakisning biografiyasi berilmaydi, hatto uni kimligi aytilmaydi, lekin g'oyalar she'rning mag'zini tashkil qiladi. Lekin olti misralik she'rda juda muhim va juda ulkan g'oyalarni g'oyat nozik tarzda, ixcham va yorqin ifodalab bergan"⁴.

Izlanishlarimiz natijasida shoirning poetik mahoratining belgilovchi sifatlaridan biri, she'rlarida kichik detallarda katta muammolarni yoritishini, bu esa uning ijodida o'ziga xos yo'nalishni yaratilishiga sabab bo'la olganini guvohi bo'ldik.

Urushga chog'langan kemalar beshak,

*Bu kuydan mangua uxlab qoladi*⁵.

"kemalar" – tasvirlangan obrazning kichik bir qismi, detallarning birikuvi natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi, hatto urushga chog'langan kemalar ham qo'shiqni zavqidan "uxlab qolish"ini, "kema" detali orqali qo'shiqchining mahoratini ko'rsatib beradi. "Kema" detali ortida ma'lum realiya mavjud, ya'ni shoir "kema" yordamida maishiy turmush yoki joy tafsilotlariga ham ishora qiladi. Detal badiiy voqelik ashyosi bo'lish bilan birga, badiiy umumlashtirishga intiladi, shoir fikrini aniqlashtirish, to'ldirish, kuchaytirish maqsadlariga ham xizmat qiladi. Mahoratli shoir she'rlari qamrovining kengligi, shakl rang-barangligi, poetik ma'no tovlanishlari va lirik qahramon nigohining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shoirning o'ziga xos uslubi voqelikka faol munosabatda bo'lishida, mavzuning yangi qirralarini topishga intilishida va ifodaning o'zgachaligida namoyon bo'ladi. Shoir badiiy tasvir va ifoda vositalari yordamida lirik qahramon tuyg'ularining, uning hissiyotlarini, kechinmalarini, tabiat hodisalari orqali tasvirlab ko'rsatadi:

Qoq tungacha qiyinar dim havo,

Olisdadir salqin yulduzlar.

Tolg'in navo, toliqqan navo

*Yuraklardan qo'nimgoh izlar*⁶.

Shoirning "tolg'in navo, toliqqan navo" jumalari o'xshatish bo'lib, majoziy ma'noda qo'llagan va bu orqali shoir toliqqan, horg'in inson kayfiyatini aks ettiradi. Tabiat holatini, undagi o'zgarishlar inson yashash tarzi, hayoti, turmush tarziga bog'liq ravishda tasvirlab

⁴ Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985– Б.74-75.

⁵ Абдулла Шер. Танланган асарлар. Уруш. Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б.123.

⁶ Абдулла Шер. Ёнаётган йўл. Ёз. Шеърлар, балладалар, достон ва таржималар – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2000. – Б.65.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ko'rsatilgan. "Badiiy mahorat, bir tomondan real hayotdagi yangilikni ko'ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san'ati bo'lsa, ikkinchi tomondan san'atning sirlarini, texnikasini, minglab hissiy-tasviriy vositalarni chuqur bilishga bog'liqdir"⁷.

Shoirning badiiy mahorati ham real hayotdagi voqealarni, inson ichki holatini, tabiatning rangin manzaralariga bog'liq holda ko'rsatib berishida namoyon bo'ladi. Ijodkor she'riyatni ilohiy bir tuyg'u ekanligini his qilgan holda, inson qalbidagi kechinmalar va o'zgarishlarni chiroyli o'xshatishlar, tabiat hodisalariga solishtirishlar orqali poetik tashbehlarda ifoda etadi. Sirtidan qaraganda uni she'rlari sodda va jo'n tuyiladi, lekin uning mazmunida falsafiy fikrchanlik, falsafiy mushohada yashirin. Shoir lirik she'rlaridagi mavzular xilma-xilligi, so'zlarning hashamdor emasligi, badiiy ifoda usullari o'z o'rnida qo'llanilganligi hamda shakliy o'zgarishlardagi badiiy mahoratini tahlillar orqali kuzatdik.

⁷ Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002.– Б.71.

